



UDK:930.2:391(093)

**Ra'no XATAMOVA,**

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o'qituvchisi, PhD*

*E-mail: xatamovar16@gmail.com*

*UzMU professori, t.f.d S.Jo'rayeva taqrizi asosida*

### O'ZBEKISTONDA GILAMDO'ZLIK SOHASINING TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston hududida gilamdo'zlik sohasini o'rganishga bag'ishlangan tarixshunoslik manbalari tizimli tahlil qilinadi. Qadimgi va o'rta asr yozma manbalari, sayohatnomalar, arxeologik ma'lumotlar hamda etnografik tadqiqotlar asosida gilamdo'zlikning tarixiy rivojlanish bosqichlari yoritilgan.

Tadqiqotda XIX - XX asrlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar, jumladan, mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil etiladi. Turli davrlarda gilamdo'zlikka nisbatan shakllangan ilmiy yondashuvlar, metodologik farqlar va tadqiqot yo'nalishlaridagi o'zgarishlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Gilamdo'slik, naqsh, to'qilgan, ipak, jun.

### ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОВРОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье систематически анализируются исторические источники, посвященные изучению ковроткачества в Узбекистане. На основе древних и средневековых письменных источников, путевых заметок, археологических данных и этнографических исследований описываются этапы исторического развития ковроткачества. В исследовании представлен сравнительный анализ научных исследований, проведенных в XIX - XX веках, включая взгляды местных и зарубежных ученых. Выделены научные подходы к ковроткачеству, методологические различия и изменения направлений исследований, сформировавшиеся в разные периоды.

**Ключевые слова:** Ковроткачество, узор, ткачество, шёлк, шерсть.

### HISTORICAL ANALYSIS OF THE CARPET INDUSTRY IN UZBEKISTAN.

Annotation

This article systematically analyzes historical sources devoted to the study of carpet weaving in Uzbekistan. Based on ancient and medieval written sources, travelogues, archaeological data, and ethnographic research, it describes the stages of the historical development of carpet weaving. The study presents a comparative analysis of scientific research conducted in the 19th and 20th centuries, including the views of local and international scholars. It highlights scientific approaches to carpet weaving, methodological differences, and changes in research directions that emerged over different periods.

**Key words:** Carpet weaving, pattern, weaving, silk, wool.

**Kirish.** Markaziy Osiyo hududi qadimdan sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lib, turli etnik va madaniy an'analarning o'zaro ta'siri natijasida boy hunarmandchilik madaniyati shakllangan. O'rta Osiyo xalqlarining madaniy taraqqiyotida amaliy bezak san'ati muhim o'rin tutadi. Shu turlar orasida gilamdo'zlik san'ati nafaqat maishiy ehtiyojlarni qondiruvchi hunar sifatida, balki xalqning badiiy dunyoqarashi, ijtimoiy hayot tarzi va ma'naviy qadriyatlarining yorqin ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Gilamlardagi naqshlari, kompozitsion shakllari va ranglar uyg'unligi xalqning tabiatga munosabati, dunyoqarashi va estetik ehtiyoji namoyon bo'ladi.

O'rta Osiyoda gilamchilik tarixini ilmiy o'rganish XIX asr oxiri - XX asr boshlarida, ya'ni Rossiya etnografik maktabi va Turkiston o'lkasini tadqiq etish jarayonlari davrida boshlandi. Bu davrdagi ilmiy izlanishlar nafaqat amaliy jihatni, balki gilamning tarixiy, etnik, madaniy va simbolik mohiyatini ham ochib berdi. Keyinchalik sovet tarixiy etnografiyasi va san'atshunosligida bu yo'nalish yangi metodologik asoslarda ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy tadqiq etila boshladi.

Shu borada ilmiy tadqiqotlarning ilk bosqichi XIX asr oxiri - XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda Rossiya imperiyasi olimlari, etnograf va san'atshunoslari tomonidan Turkiston xalqlarining madaniy merosi, xususan, gilamchilik sohasiga oid qator ilmiy ishlar yaratilgan. Ular orasida

A.A.Bogolyubovning "Kovri narodov Sredney Azii" [1] asari alohida ahamiyatga ega. Asarning fotoalbum ko'rinishida yaratilgani uning ilmiy qiymatini yanada oshiradi, chunki u tadqiqotchilar uchun vizual-taqqoslama manba sifatida xizmat qiladi.

A.A.Semenovning "Kovri russkogo Turkestana" [2] asari Markaziy Osiyoda gilamdo'zlik tarixiga bag'ishlangan ilmiy nashrlardan biri bo'lib, u Turkiston general-gubernatorligi hududidagi xalqlarning gilamdo'zlik tarixi etnografik yoritilgan. A.A.Semyonov faqat kolleksiyalar tasnifini emas, balki gilamning ijtimoiy, iqtisodiy va estetik vazifalarini ham tahlil qiladi.

U kuzatuvlar orqali gilam to'qish jarayonlarini, ishlatilgan xomashyoni Turkiston muzeyi va Sankt-Peterburg etnografik muzeyidagi gilam namunalari bo'yicha, turkman, o'zbek, qozoq va qirg'iz gilamlarining bezaklari va texnika jihatidan o'xshash va farqli tomonlarini taqqoslash orqali tahlil qiladi. O'rganishlari davomida Denov gilamlari Qarshi gilamlaridan qolishmasligini takidlaydi[2].

Tadqiqotchi o'z tadqiqotida gilamchilikni faqat iqtisodiy yoki maishiy mahsulot sifatida emas, balki xalqning badiiy dunyoqarashi, ornamental fikrlash tizimi va etnik estetikasining moddiy ifodasi sifatida talqin qildi.

Tadqiqotchi o'z tadqiqotida gilamchilikni faqat iqtisodiy yoki maishiy mahsulot sifatida emas, balki xalqning

badiiy dunyoqarashi, ornamental fikrlash tizimi va etnik estetikasining moddiy ifodasi sifatida talqin qildi.

V.Balkovning "Kustarno-remeslennaya promishlennost Sredney Azii" [3. 94 b.] asari Markaziy Osiyoda hunarmandchilikning iqtisodiy holati, ishlab chiqarish tarkibi, bozor munosabatlari va mehnat taqsimotiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotdir.

U tadqiqotlarida Turkiston o'lkasidagi iqtisodiy ma'lumotlari, 1917–1926-yillardagi statistik hisobotlar va mahalliy hunarmandlardan to'plangan tarixiy va etnografik ma'lumotlardan keng foydalangan[3].

V.Balkov ma'lumotlariga ko'ra, XX asr boshlarida Turkiston hududida 600 mingga yaqin aholi hunarmandchilik bilan band bo'lgan, shundan 10 - 12 foizi gilamchilik sohasiga to'g'ri kelgan[3].

Markaziy Osiyo xalqlarining amaliy bezak san'ati, jumladan gilamdo'zlik, jahon madaniyati tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu sohani ilmiy o'rganishning ilk tahlillaridan biri sovet san'atshunosi B.I. Veymarn tomonidan amalga oshirilgan. Uning "Искусство Средней Азии" [4] asari Markaziy Osiyo xalqlarining badiiy madaniyati, xususan, amaliy san'at turlarining genezisi va estetik asoslarini yoritgan ilmiy manbalardan.

B.I.Veymarnning ilmiy yondashuvlarida etnografik tahlilni uyg'unlashtirgan bo'lib, u san'atni xalqning ijtimoiy-ruhiy tafakkuri bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha:

"Amaliy san'at - bu xalq dunyoqarashining moddiy ko'rinishi, uning ornament va shakl orqali ifodalangan ruhiy tafakkuridir" [4].

XX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo hududida amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy qayta qurish jarayonlari mahalliy hunarmandchilik tizimini tubdan o'zgartirdi. Bu jarayonning ilmiy tahlilida B.Desyatchikov va Y.Ponomarevning "Социалистическая реконструкция ремесленно-кустарной промышленности УзССР" [5] asari muhim ahamiyatga ega bo'lib, u hunarmandchilikning iqtisodiy-institutsional nuqtai nazaridan ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, 1930 - 1940-yillar davomida O'zSSRda amalga oshirilgan sanoatlashtirish hunarmandchilik sohasini ham chetlab o'tmagan. Davlat siyosati natijasida ko'plab alohida ustaxonalar va oilaviy ishlab chiqarish nuqtalari artellar va kooperativlar tizimiga birlashtirilgan. Buni natijasida "hunarmandning ijtimoiy mehnatga qo'shilishi orqali xalq san'atidagi sinfiy transformatsiya" deb baholaydilar[5].

Bu davrga kelib tarixiy an'analarga asoslangan geometriyalashtirilgan va belgili naqshlar o'rmini sotsialistik realizm uslubidagi "mehnat, taraqqiyot va yangi hayot" ramzlari egallagan[5].

Y.M.Pesherova tomonidan 1945-yili nashr etilgan "Prikladnoye iskusstvo Uzbekistana"[6] asari sovet etnografiyasi va san'atshunosligidagi kompleks tadqiqotlardan biri bo'lib, u o'zbek xalq amaliy bezak san'atining shakllanishi, rivojlanishi va ijtimoiy mohiyatini ilmiy asosda yoritib berdi.

Y.M.Pesherovanning "Прикладное искусство Узбекистана" asari o'zbek amaliy bezak san'ati tarixshunosligidagi metodologik burilish nuqtasi hisoblanadi. Asardagi ilmiy qiyosiy tahlillar, gilamchilik maktablarining morfologik tavsifi va ramzshunoslikka oid mulohazalar keltirilgan.

S.P.Tolstov[7] tomonidan tashkil etilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi (XAEYE, 1937 - 1976) faqat arxeologik emas, balki etnomadaniy jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qilishda maktab vazifasini o'tadi.

"Xorazm gilamdo'zlik bezaklari - quyosh, yer va suv izlari bu xalqning moddiy madaniyatida saqlanib qolgan qadimiy kosmogonik belgilar tizimi bo'lib, u etnosning ma'naviy tafakkuri yoritib beradi" [7].

G.A.Pugachenkova va L.I.Rempelning "Istoriya iskusstva Uzbekistana" [8] asari ilmiy uslubda, tarixiy va san'atshunoslik yo'nalishida mukammal tahlil qilinib, yozilgan. G.A.Pugachenkova va L.I.Rempel tomonidan yaratilgan asari O'zbekistondagi badiiy va amaliy san'at rivoji bo'yicha ensiklopedik ilmiy manbadir. Asarda san'atning barcha turlari - me'morchilik, haykaltaroshlik, musavvirlik va amaliy bezak san'ati - tarixiy davrlar kesimida ilmiy tahlil etilgan.

V.G.Moshkovaning "Коври народов Средней Азии конса XIX - начала XX вв." [9] asari Markaziy Osiyo xalqlarining gilamdo'zlik san'atiga bag'ishlangan fundamental tadqiqot hisoblanadi. Unda XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi gilam ishlab chiqarish jarayonlari, hududiy uslublar va hunarmandchilik an'analari yoritilgan. V.G.Moshkova mazkur ilmiy tadqiqot ishini 1929 - 1945 yillardagi ekspeditsiya materiallari, muzey kolleksiyalari va mahalliy ustalar bilan suhbatlar asosida yozgan.

Y.G.Sarevaning "Ковроделие арабов южных раёнов Узбекистана. Конетс XIX - начало ХХИ вв". (по коллекциям МАЭ и РЕМ) [10] asari O'zbekistonning janubiy hududlaridagi arab aholisining gilamdo'zlik an'analari ilmiy-tarixiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Tadqiqot «Музей антропологии и этнографии (МАЭ)» hamda «Российский этнографический музей (РЕМ)» fondlarida saqlanayotgan gilamlar kolleksiyalariga tayanadi.

V.M.Massonning "Культура древней Бактрии" [11] asari Markaziy Osiyo arxeologiyasi va etnomadaniy tarixi sohasidagi eng muhim ilmiy manba hisoblanadi. Baqtriya hududini ya'ni hozirgi janubiy O'zbekiston, Tojikiston va shimoliy Afg'oniston Sharq sivilizatsiyasining mustaqil madaniy markazi sifatida ilmiy asosda tavsiflaydi.

Bronza va ilk temir davrlaridagi amaliy san'at, ornament va hunarmandchilik tizimlarining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini arxeologik materiallar asosida yoritilgan.

Y.A.Gulyamovning "История ремёсел Узбекистана"[12] tadqiqot ishi O'zbekiston hududidagi hunarmandchilik an'analari ilmiy asosda tavsiflaydi. Davlat siyosati natijasida ko'plab alohida ustaxonalar va oilaviy ishlab chiqarish nuqtalari artellar va kooperativlar tizimiga birlashtirilgan. Buni natijasida "hunarmandning ijtimoiy mehnatga qo'shilishi orqali xalq san'atidagi sinfiy transformatsiya" deb baholaydilar[5].

Y.A.Gulyamov O'zbek gilamlardagi naqshlar qishloq xo'jaligi jamiyatining dunyoqarashlarini aks ettiruvchi ifoda deb baholaydi. Bu uslubiy farqlar nafaqat badiiy did bilan, balki har bir hududning tabiiy muhiti, rang dunyosi va xom ashyo imkoniyatlari bilan ham bog'liqdir[12].

A.A.Asqarov "Древние ремёсла Средней Азии" [13] asarida Markaziy Osiyo hududidagi ilk hunarmandchilik an'analari va moddiy madaniyatning rivojlanish bosqichlariga bag'ishlangan.

A.A.Asqarov arxeologik manbalarga asoslanib, gilamchilik madaniyati Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi II ming yillikdayoq ya'ni bronza davridayoq shakllanganini ko'rsatadi[13].

S.Bulatov ta'kidlaganidek, gilamdo'zlik san'ati o'z ildizini qadimgi Turon madaniyatidan oladi. Uning fikricha, gilam to'qish usullari va ornament elementlari miloddan avvalgi ming yilliklardayoq shakllangan bo'lib, bu haqda arxeologik dalillar ham mavjud [14]. U o'zining "Культура древней Бактрии" [11] asarida qadimgi Baqtriya va So'g'd madaniyatida to'quvchilik va gilamchilik allaqachon mukammal shaklga ega bo'lganini ta'kidlaydi. Uningcha, har bir naqsh xalqning hayot falsafasi, orzu-intilishlari va diniy-ramziy tasavvurlarini ifoda etadi[14].

T.V.Vasilyeva "Ковровое искусство народов Средней Азии" [15] asari gilamdo'zlik san'atining tarixiy-

etnografik va semiotik tahliliga bag'ishlangan ilmiy manba hisoblanadi.

T.V.Vasilyeva Markaziy Osiyo xalqlarining (ayniqsa, o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, tojik va qoraqalpoq xalqlari) gilamchilik madaniyatini bir butun madaniy tizim sifatida ko'radi.

B.Eshovning o'zbek xalq amaliy bezaklari va ularning tarihiga oid bir qancha ilmiy tadqiqotlari bo'lib, ularda o'zbek san'ati va hunarmandchiligi uzoq tarixga borib taqalishini aytib o'tadi. Uning "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati tarixi" [16] asarida amaliy bezak san'atining genezisi, tipologiyasi va rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan tadqiq etgan. "O'zbek amaliy bezak san'ati xalqning ko'hna tarixiy tafakkuri, estetik didi va mehnat madaniyatining uzviy davomi sifatida namoyon bo'lishini" [16] ta'kidlab o'tadi.

B.Eshovning "Gilamchilik san'atida an'anaviylik va zamonaviylik" [16] asarida "an'anaviylik" tushunchasiga chuqur ta'rif beradi. Uning fikricha, an'anaviylik - bu millatning tarixiy tafakkuri, hayot tarzi va ijtimoiy xotirasini san'at orqali uzatish tizimidir.

"An'anaviy gilamchilik nafaqat naqshlar takrori, balki xalqning badiiy ongidagi uzluksizlik va qadriyatlar merosidir". Shu bilan birga "Zamonaviylik - an'anaviylikni inkor etish emas, balki uni yangi badiiy ifoda vositalari orqali qayta anglashdir" [16].

O'rta Osiyoda gilamdo'zlik san'atini ilmiy tadqiq etish tarixi xalq amaliy bezak san'atini o'rganishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. XIX asr oxirida A.A.Bogolyubov, S.M.Dudin va A.A.Semyonov kabi tadqiqotchilar gilamchilikni etnografik jihatdan o'rganishga asos soldilar. Ular gilamni faqat maishiy buyum emas, balki xalq estetikasining, etnik an'alarining va ruhiy dunyoqarashining ifodasi sifatida talqin qildilar.

XX asrning birinchi yarmida sovet etnografik va san'atshunoslik maktablari bu yo'nalishni ilmiy-nazariy jihatdan boyitdilar. B.I.Veymarn, S.P.Tolstov, Y.A.Gulyamov, V.G.Moshkova va boshqalar gilamchilikni tipologik, semiotik va madaniy ramzlar tizimi nuqtai nazaridan tahlil qildilar. Bu tadqiqotlar natijasida gilamdo'zlik xalq ijodiyotining murakkab estetik tizimi sifatida, uning ornamenti esa xalq dunyoqarashining ramziy tili sifatida baholandi.

**Xulosa.** Gilamdo'zlik san'atini tadqiq etish faqatgina etnografik yoki san'atshunoslik yo'nalishi emas, balki xalq madaniyatining tarixiy qatlamlarini, ijtimoiy munosabatlar va estetik an'alarining uzviyligi va evolyutsiyasini ko'rsatuvchi ilmiy sohadir. Bu ilmiy yo'nalishni yanada chuqur o'rganish O'zbekiston madaniy merosini anglash va milliy qadriyatlarni ilmiy asosda tiklashga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Боголюбовнинг А.А. "Ковры народов Средней Азии" // Санкт-Петербург. 1908.
2. Семенов, А. А. Ковры русского Туркестана // Этнографическое обозрение. — СПб., 1911.
3. Балков В. Кустарно-ремесленная промышленность Средней Азии. — Ташкент, 1927. - С. 94.
4. Веймарн Б.И. Искусство Средней Азии. — М., 1940. - С.82.
5. Десятчиков Б., Пономарев Я. Социалистическая реконструкция ремесленно-кустарной промышленности УзССР. — Ташкент: Госиздат. УзССР, 1940. -С. 39.
6. Пещерова Е.М. Прикладное искусство Узбекистана. — Ташкент: Узгосиздат, 1945.
7. Толстов С.П. Древний Хорезм. — М.: Издательство АН СССР, 1948. По следам древнехорезмийской цивилизации. — М.: Наука, 1962.
8. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана. — М., 1965.
9. Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX - начала XX вв. [Часть 1]. Ташкент, 1970
10. Цареванинг Е.Г. «Ковроделие арабов южных районов Узбекистана. Конец XIX — начало XXI вв. (по коллекциям МАЭ и РЭМ)».
11. Массон В.М.. Культура древней Бактрии. — Москва: Наука, 1971. — 256 с.
12. Гулямов Е. А. История ремёсел Узбекистана. — Ташкент: Фан, 1972. С.328.
13. Аскарлов А. А. Древние ремёсла Средней Азии. — Ташкент: Фан, 1981.256.
14. Булатов С., Ўзбек халқ амалий безак санъати, Тошкент, 1990, 37–39-б.
15. Васильева Т.В. "Ковровое искусство народов Средней Азии", Санкт-Петербург, 1997.
16. Эшов Б. "Ўзбек халқ амалий безак санъати тарихи." – Тошкент, 1991.